Uzbekistan Airways aviaparki yangi avlod saloniga ega oltinçi Airbus A321neo avialayneri bilan töldirildi

2026 20 Noyabr

2026-yil 20 noyabr kuni Uzbekistan Airways aviaparki Özbekiston Respublikasi mustaqilligining 35-yilligi şarafiga maxsus dizaynda bezatilgan UK32106 röyxatga oliş raqamiga ega yangi Airbus A321neo bilan töldirildi. Layner zamonaviy yeçimlar hamda sayohatçilar qulayligiga qaratilgan e’tiborni özida mujassam etgan yangilangan yölovçilar saloniga ega böldi. Havo kemasining kelişi Uzbekistan Airways aviakompaniyasining flotni rivojlantiriş va modernizatsiya qiliş, ilğor aviatsiya texnologiyalarini joriy etiş va yölovçi taşiş sifatini oşiriş böyiça izçil strategiyasining davomi böldi.



Yangi Airbus A321neo ikki toifali körinişda taqdim etilgan bölib, 172 yölovçini taşişga möljallangan: biznes-klassda 16 ta, ekonom klassda esa 156 ta örindiq mavjud. Uşbu turdagi ilgari foydalanilgan samolyotlar bilan soliştirganda, yangi konfiguratsiya yölovçi salonini sezilarli darajada yangilaşni, jumladan, zamonaviy örindiqlar, takomillaştirilgan multimedia tizimi va havo kemasi bortida qulaylikni ta’minlaş uçun yangi texnologik yeçimlarni öz içiga oladi.



Asosiy yangiliklardan biri Airbus’ning Airspace Premium salon dizayn konsepsiyasi bölib, u qöl yukini joylaştiriş uçun köproq joy beradigan kengaytirilgan XL Bin yuk javonlarini, şuningdek, parvozning turli bosqiçlariga yoruğlik muhitini moslaştiriş imkonini beruvçi oldindan sozlangan yoritiş ssenariylarini öz içiga oladi.



Yölovçilar örindiqlarini jihozlaşda ham sezilarli özgarişlar böldi. Biznes-klassda Thompson Aero Seating kompaniyasi tomonidan işlab çiqarilgan, oraliği 40 dyuymdan boşlanadigan va töliq gorizontal holatga yoziladigan (Full Flat Bed) zamonaviy Vantage örindiqlari örnatilgan. Yölovçilarga qulaylik yaratiş uçun örindiq holatini sensorli boşqariş tizimi, şaxsiy buyumlarni saqlaş uçun alohida bölimlar, yiğiladigan ovqatlaniş va qöşimça stollar, şaxsiy yoritiş, elektr rozetkalari va Type-A va Type-C USB-ulagiçlari mavjud.



Ekonom-klassda Collins Aerospace kompaniyasining ergonomik Meridian örindiqlari örnatilgan bölib, ularning qadami 30 dyuymdan boşlanadi va örindiq suyançiğini oğdiriş imkoniyati mavjud. Har bir yölovçi örindiği, şuningdek, şaxsiy elektron qurilmalarni quvvatlaş uçun alohida Type-A va Type-C USB-ulagiçlari bilan jihozlangan.



Samolyotda raqamli xizmatlarni rivojlantirişga alohida e’tibor qaratildi. Barça yölovçi örindiqlari Rave Aerospace kompaniyasining zamonaviy Rave Ultra köngiloçar tizimi bilan jihozlangan bölib, biznes-klassda 17,3 dyuymli va ekonom-klassda 13,3 dyuymli individual LED ekranlar bilan jihozlangan. Yölovçilar Betria’dan filmlar, musiqa, podkastlar, interaktiv öyinlar va uç ölçamli parvoz xaritasidan (3D parvoz xaritasi) foydalanişlari mumkin böladi. Tizimning yangilangan interfeysi parvoz davomida qulay navigatsiya va multimedia kontentiga kirişni ta’minlaydi.



Bundan taşqari, yangi Airbus A321neo havo kemasida Airbus kompaniyasining HBCPlus yeçimi va NSG texnologiyalari asosida bortda internet tarmoğiga kirişni ta’minlaş uçun takomillaştirilgan uskunalar mavjud bölib, ular tizimga maksimal darajada qulay kiriş va yuqori tezlikdagi internet aloqasini ta’minlaydi.



“Uzbekistan Airways havo parkini izçil yangilab, parvozlar geografiyasini kengaytirib, sayohatlar va xalqaro aviaqatnovlarni rivojlantiriş uçun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Şu bilan birga, yölovçilarga xizmat körsatiş sifati va qulayligini oşirişga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Zamonaviy salon konfiguratsiyasi va ilğor texnologik yeçimlarga ega yangi Airbus A321neo avialaynerining kelişi bu boradagi navbatdagi qadamdir. Biz Uzbekistan Airways’ning xalqaro aviatsiya bozoridagi mavqeini mustahkamlab, zamonaviy xizmat körsatiş standartlarini joriy etişni va yölovçi mahsulotlarini takomillaştirişni davom ettiramiz,” – dedi "Uzbekistan Airways" AJ Boşqaruv raisi Şuxrat Xudaykulov.



Airbus A321neo Airbus A320neo oilasiga kiruvçi tor fyuzelyajli havo kemalarining yangi avlodiga mansubdir. Zamonaviy dvigatellar va aerodinamik yeçimlar oldingi avlod havo kemalariga nisbatan yuqori yoqilği samaradorligini ta’minlaydi, ekspluatatsiya xarajatlarini va atrof-muhitga ta’sirini kamaytiradi.



Yangi havo kemasining kelişi Uzbekistan Airways aviakompaniyasiga yölovçi taşişni rivojlantirişni davom ettiriş va zamonaviy xalqaro standartlarga muvofiq xizmat körsatiş sifatini yaxşilaş imkonini beradi. Yaqin vaqt içida avialayner aviakompaniyaning yönalişlar tarmoği böylab muntazam aviaqatnovlarni amalga oşirişni boşlaydi.

- - -

Uzbekistan Airways haqida

Uzbekistan Airways – Özbekiston Respublikasining milliy aviataşuvçisi bölib, 100 dan ortiq yönalişlar böyiça muntazam va çarter yölovçi hamda yuk taşuvlarini amalga oşiradi. Aviakompaniya parvozlar xavfsizligini özining asosiy ustuvor yönalişlari qatorida saqlab qolgan holda xalqaro yönalişlar tarmoğini izçil rivojlantirmoqda, havo parkini yangilaş va körsatilayotgan xizmatlar sifatini oşirmoqda.